


# Fanlar akademiyasi Botanika instituti olimlari tomonidan yangi o'simlik turi kashf etildi


O'zR FA Botanika instituti O'zbekiston florasi hamda Molekulyar filogeniya va biogeografiya laboratoriyasi xodimlari fan uchun piyoz (*Allium*) ning yangi turini aniqladilar. Surxondaryo viloyatidagi Bobotog' tizmasidan topilgan bu tur *Allium suhangii* deb nomlandi. *Allium suhangii* morfologik jihatdan *Allium brevidens*ga o'xshash, lekin tojbarglarining uzunligi va o'ziga xos rangi bilan farqlanadi. Kashf qilingan yangi turning tavsifi mashhur *PhytoKeys* jurnalida nashr etildi (<https://phytokeys.pensoft.net/article/96464/>). Maqola *Allium* turkumiga mansub bo'lgan yangi turning O'zbekiston hududidan topilganligini va uni to'liq O'zbekiston florasi uchun noyob endemik tur ekanligini ko'rsatadi.




*Allium suhangii* A-A1 gulning butun va bo'ylama kesmasi. B gulning alohida ko'rinishi. C urug'chining ko'ndalang kesmasi. D-D1 piyozbosh qobig'i va piyozbosh. E turning umumiy ko'rinishi (barglarsiz).



*Allium sunhangii* F.O.Khass., Tojibaev & Z.Yuss., sp. nov. ning golotipi



Allium sunhangii, A. brevidens, A. nikolai va A. pshikharvicum ning tarqalish xaritasi



A1-A2 to'pgulning ko'rinishi va o'sayotgan Allium sunhangii. B-B1 Zarkosa cho'qqisining umumiy ko'rinishi va yashash joyi landshafti.

Filogenetik daraxt va unda A. sunhangii ning joylashishi.